

## DEVONCHILIK AN'ANALRI. SHARQ DEVONCHILIGI TARIXIDA ALISHER NAVOIYNING O'RNINI

Anvarxo'jayeva Muhsinaxon Buzrukxo'ja qizi  
"Filologiya" fakulteti 2-kurs talabasi

**Annotatsiya:** Maqolada Alisher Navoiy o'zbek badiiy tafakkurini jahon badiiy tafakkuri darajasiga olib chiqish bilan o'zining beqiyos, favqulodda ijodiy salohiyat sohibi, ulug' mutafakkir, benazir shoir sifatida namoyon etdi. Bu bilan u jahon adabiyotining yirik namoyandalari qatoridan o'ziga munosib o'rin egalladi. Maqolada Alisher Navoiyning Sharq devonchiligi tarixida asarlari va uning tutgan yo'li an'analari yoritiladi.

**Kalit so'zlar:** Navoiyning merosi, o'zbek yoki turkiy xalqlar adabiyoti, sharq so'z san'ati, tazkira, Navoiy uslubi, mumtoz ma'naviy boylik.

**Аннотация:** Статья Алишера Навои, выводя узбекское художественное мышление на уровень мирового художественного мышления, показала его несравненный, незаурядный творческий потенциал, великого мыслителя, уникального поэта. Этим он заслужил достойное место среди великих представителей мировой литературы. В статье освещаются труды Алишера Навои по истории восточного девонизма и традиции его пути.

**Ключевые слова:** наследие Навои, литература узбекского или тюркского народов, восточное словесное искусство, tazkira, стиль Навои, классическое духовное богатство.

**Annotation:** Article Alisher Navoi, by bringing Uzbek artistic thinking to the level of world artistic thinking, showed his incomparable, extraordinary creative potential, great thinker, unique poet. With this, he earned his rightful place among the great representatives of world literature. The article highlights the works of Alisher Navoi in the history of Eastern Devonism and the traditions of his path.

**Keywords:** Navoi heritage, literature of Uzbek or Turkic peoples, Oriental verbal art, tazkira, Navoi style, classical spiritual wealth

O'zbek xalqining mutafakkir shoiri Alisher Navoiy sharq adabiyoti doirasiga turkiy xalqlar adabiyotining buyuk vakili sifatida kirib bordi. Ahmad Yassaviy, Yusuf Xos Hojib kabi adabiyot namoyandalari meroslari vositasida Sharqda o'z nufuzini ko'rsata boshlagan turkiy adabiyot Navoiy dahosi bilan arab va fors tillaridagi adabiyotlar qatoridagi o'zining mustahkam o'rnini egalladi. O'z ijodi bilan o'zbek va turkiy tildagi adabiyotlarni durr-u gavharlar bilan jilolagan, uning taraqqiyotiga tamal toshi qo'ygan Alisher Navoiy sharq adabiyotini butun dunyoga tanitgan buyuk allamalardan sanaladi. Zotan, "o'zida ham liriklik, ham epiklik, ham olimlik, ham davlat arbobi qobilyatlarini muvaffaqiyatli mujassamlashtirgan takrorlanmas, ajoyib talantlardan biri bo'lgan" bu ulug' shaxs butun faoliyati davomida Sharqdagi hamma adabiyotlarning o'zaro aloqalar yo'li bilan bir-birlarini boyitib borishlari, yangiyangi ijodiy kashfiyotlarga erishuvlari tarafdori bo'lgan. O'zi turkiy tilidagi adabiyotning eng yaxshi namunalarini yaratib, boshqa so'z san'atkorlarini ham shu ijodiy yuksaklikka erishuvga chaqirdi.

**Ilk devon:** Shoirning muxlislari 1465–66 yillarda uning she'rlarini to'plab, devon tuzadilar va bu devon o'z davrida "xattotlar sultoni" nomi bilan mashhur bo'lgan Sultonali Mashhadiy tomonidan nasta'liq xatida ko'chiriladi. Navoiyning o'zi "Badoye' ulbidoya"ga yozgan debochasida "...ammo xaloyiq arosida ming bayt-ikki ming bayt ortug'roq, o'ksukrakkim o'zlari jam' qilib erdilar, bag'oyat mashhur bo'lub erdi", – deb yozadi. Devon uni nashrga tayyorlagan adabiyotshunos olim Hamid Sulaymonov tomonidan shartli ravishda "Ilk devon" deb nomlangan bo'lib; 391 g'azal, 41 ruboiy, 1 mustazod, 1

muxammas – jami 434 she'rdan tashkil topgan. Devondagi she'rlarning asosiy qismini g'azallar tashkil etadi. G'azallar 28 arab harflari bilan tugallanuvchi qofiya hamda radiflar asosida tuzilgan. "Ilk devon" musulmon Sharqida mavjud an'anaga muvofiq hamd g'azal bilan ibtido topadi.

Iloho, podshoho, kirdigoro,

Sanga ochug' nihonu oshkoro

Navoiy devonlarida so'z san'atining yuksak g'oyalar ifodalangan oliy namunasi bo'lishi bilan birga mukammal adabiy til namunasidir. Navoiy asarlari tilining boy va go'zalligi shundaki, unda oddiy so'zlashuvda kundalik turmushda ishlatiladigan so'zlardan tortib turli ilmu fanlarga oid atamalargacha juda aniq va o'rinli ravishda iste'mol qilingan. Navoiy tilidagi so'zlar ko'lam jihatidagina emas, rang-baranglik jihatidan ham diqqatga sazovordir. Navoiy tilning lug'aviy boyligini oshirishda turkiy va o'zlashma so'zlardan samarali foydalangan.

**"Oqquyunli muxlislar devoni"**: Navoiyshunos olim, filologiya fanlari doktori Aftondil Erkinov jahon qo'lyozma fondlarida saqlanayotgan nusxalarni o'rganish asnosida Alisher Navoiyning ixlosmandlari tomonidan tuzilgan yana bir devoni qo'lyozmasini aniqlab, 2012-yilda fanga ma'lum qildi. Mazkur devon shoirning Oqquyunlilar sulolasi (Ozarbayjon va G'arbiy Eron hududida 1378–1508-yillarda hukmronlik qilgan o'g'uz turklari) hukmronligi hududidagi muxlisleri tomoni Devon 1471-yil 25-dekabrda Anisiy taxallusi bilan she'rlar yozgan shoir va xattot Abdurahim ibn Abdurahmon Xorazmiy tomonidan Oqquyunlilar saltanatining markazlaridan biri bo'lgan Sheroz shahrida ko'chirilgan. Devonda jami 229 ta she'r bor: 224 g'azal, 1 mustazod, 3 muxammas va 1 tarji'band. Bu majmuadagi 224 g'azaldan 217 tasi "Badoye' ul-bidoya"ga va faqat bittasigina "Navodir un-nihoya"ga o'tgan. Devondagi 85% g'azal "Ilk devon"da uchramaydi. dan tuzilgan.

**"Badoye' ul-bidoya" ("Badiylikning boshlanishi")**: Avval budurkim, har kishikim devon tartib qilibdurur, o'ttiz ikki harfdinki, xaloyiq iboratida voqi'durur va ulus kitobatida shoyi', to'rt harfg'a taarruz qilmaydururlar...(چ – chim, ژ – je, گ – gof va ل – lom-alifni ham qo'shgan holda) • Yana bukim, har harf g'azaliyotining avval bitigan g'azal bila o'zga g'azallar orasida uslub xaysiyatidin tafovut rioyat qilmaydururlar. Muqarrardurkim, har amrda bir lahza Haq subhonahu va taolo hamdidin yo rasul alayhissalom na'tidin, yo bu ikki ishga dalolat qilurdek bir amrdin g'ofil bo'lmamog'liq avlodur... • Yana bir bukim, go'yiyo ba'zi el ash'or tahsilidin va devon takmilidin g'araz majoziy husnu jamol tavsifi va maqsud zohiriy xattu xol ta'rifidin o'zga nima anglamaydururlar. Devon topilg'aykim, anda ma'rifatimiz bir g'azal topilmag'ay va g'azal bo'lg'aykim, anda mav'izatangiz bir bayt bo'lmag'ay...

**"Navodir un-nihoya"**: "Xazoyin ul-maoniy"da shunday deydi: "... ikkinchi devonimdakim, "Navodir un-nihoya"ga mashhurdur, rabt-u tartib berib, debochasinda sharh bila aizzayi as'hobu ajillayi ahbob xidmatlarida arz qilib erdim". "Navodir un-nihoya"dagi g'azallar keyinchalik "Xazoyin ul-maoniy" kulliyotiga quyidagi miqdorda joylashtirilgan: 64 g'azal "G'aroyib us-sig'ar"ga, 331 g'azal "Navodir ush-shabob"ga, 213 g'azal "Badoye' ul-vasat"ga va 196 g'azal "Favoyid ul-kibar"ga kiritilgan. Hazrat Navoiy "Navodir un-nihoya"dagi g'azallarni "Xazoyin ul-maoniy"ga kiritganda ko'pincha ularni tahrir qilgan, ba'zi g'azallarning faqat matla'sini saqlab qolib, qolgan baytlarini butunlay o'zgartirgan.

Devon Navoiyning hamd mazmunidagi mashhur g'azali bilan boshlanadi:

**Zihi zuhuri jamoling quyosh kibi paydo,**

**Yuzung quyoshig'a zarroti kavn o'lub shaydo**

“Xazoyinu-l maoniy” (1491-1498): Ma’lumotlarga ko‘ra, Abdurahmon Jomiy Alisher Navoiyga Amir Xisrav Dehlaviy kabi she’rlaridan to‘rt devon tuzib, ulaning har biriga maxsus nom qo‘yishni maslahat beradi. Shundan so‘ng Navoiy turkiy she’rlarini to‘rt devonga ajratadi, ularning har birini inson umrining muayyan paytiga mos keladigan nom bilan ataydi. Navoiy 1491-yilda to‘rt devonining birinchi, redaksiyasini uzil-kesil tuzib yakunlagan. 1495-yilga kelib, yangi yozilgan she’rlarini qo‘shib, to‘rt devonni to‘ldirgan hamda uni «Xazoyinul-maoniy» nomida majmuaga biriktirib, Husayn Boyqaroga va saroyga topshirgan. 1498- yilda H.Boyqaroga bag‘ishlangan uchinchi redaksiyasi vujudga kelgan. Navoiy she’riyatining asosiy qismini g‘azallar tashkil qiladi

**XULOSA:**Navoiyning yuqoridagi qaydlarini chuqur o‘rganish, tadqiq qilish shoirning ilmiy va badiiy ijod sohasidagi san’atkorligining muhim qirralarini ochib beradi. Shoir devonidagi she’rlarni chuqur o‘rganishda esa zarur ko‘rsatmalar vazifasini bajaradi. {5} Navoiy bobomiz birgina “Xazoyin ul-maoniy” kulliyotida insoniylikning eng oliy mezoni bu – porsolik (taqvodorlik), pokdomonlik va haqiqatsevarlikdir, deya e’tirof etgan. “Komil inson” g‘oyasi ham hamma zamonlarda birdek targ‘ib etilgan. Alisher Navoiyning asrlar oshgan asarlari bugungi kun uchun ham muhim ahamiyatga ega.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Хайитметов А. Навоийнинг ижодий методи масалалари. –Т.,ЎзФА, 1963. Б.143
2. Ўзбек адабиёти тарихи. 5 томлик. 2 том. –Т.,Фан,1977.- Б.109
3. Четиндоғ Ю. Алишер Навоий (А.Хайит таржимаси). – Тошкент: “Муҳаррир”, 2013. Б.: 32
4. Alisher Navoiy Mukammal asarlar to‘plami, uchinchi tom, Xazoyin ul-maoniy, G‘aroyib us-sig‘ar, Toshkent- 1988
5. Alisher Navoiy “Badoe’ ul-bidoya” MAT. 20 jildlik-T.: Fan, 1987. T.1.
6. <http://Library.navoiy-uni.uz>
7. Nagiyeva J. Ozarbayjon adabiyotida Navoiy an‘analari \ Alisher Navoiyning adabiy mahorati masalalari (Maqolalar to‘plami). – Toshkent: “Fan”, 1993.